

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

**INGLIZ, ISPAN VA O‘ZBEK TILLARIDA DIMINUTIVLIKNING
SEMANTIK KOMPONENT TAHLILI²⁵****Mamatqulova Nodira Fayzulla qizi***Mustaqil izlanuvchi**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: nodiramamatkulova43@gmail.com**ORCID ID:0009-0001-3797-8665***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada ingliz, ispan va o‘zbek tillarida kichraytirish ma’nosining semantik komponentlari komponent tahlil metodi asosida qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi lug‘aviy birliklar semantik strukturasi kichraytirish semasining qanday ifodalanishini aniqlash hamda uning eksplisit va implisit namoyon bo‘lish xususiyatlarini uch til materiallari asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida izohli lug‘atlar va elektron leksikografik manbalardan olingan izohlar asosiy material sifatida tanlandi. Komponent tahlil doirasida arxisema, integral sema va pometalalar (ko‘rsatkich birliklar) ajratilib, kichraytirish semasining ochiq (small, little, pequeño, kichik va b.) hamda ko‘p pog‘onali zanjir yo‘li orqali yashirin ifodalanish holatlari aniqlandi. Tahlil natijalari ingliz tilida kichraytirish semasi ko‘proq eksplisit leksik markerlar orqali, o‘zbek va ispan tillarida esa ko‘pincha implisit yo‘l bilan ifodalanishini ko‘rsatdi. Shuningdek, o‘zbek va ispan tillarida affiksatsiya vositasida hosil bo‘lgan kichraytirish shakllari muhim o‘rin tutishi aniqlangan. Maqolada keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar qiyoslanayotgan tillarda kichraytirish funksional-semantik maydonining o‘ziga xos va umumiy jihatlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalari semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik hamda leksikografiya sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

KALIT SO‘ZLAR

Kichraytirish, komponent tahlil, semantik component tahlil, funksional-semantik maydon, eksplisit ma’no, implisit ma’no, qiyosiy tilshunoslik, leksikografik tahlil.

Received: January 30, 2026**Accepted:** February 06, 2026**Available online:** May 10, 2026

²⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Mamatqulova N. Ingliz, ispan va o‘zbek tillarida diminutivlikning semantik komponent tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 185-195.

COMPONENTIAL ANALYSIS OF DIMINUTIVES IN ENGLISH, SPANISH AND UZBEK

Mamatkulova Nodira Fayzulla kizi

Independent researcher

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: nodiramamatkulova43@gmail.com

ORCID ID:0009-0001-3797-8665

ABSTRACT

This article comparatively examines the semantic components of diminutive meaning in English, Spanish, and Uzbek languages using the method of component analysis. The primary aim of the research is to determine how the diminutive seme is expressed in the semantic structure of lexical units and to analyze the characteristics of its explicit and implicit manifestations based on materials from the three languages. For the research process, definitions from explanatory dictionaries and electronic lexicographic sources were selected as the main material. Within the framework of component analysis, archisemes, integral semes, and labels (indicator units) were identified, and instances of explicit (small, little, pequeño, kichik, etc.) and implicit expression of the diminutive seme through a multi-level chain were determined. The results of the analysis revealed that in English, the diminutive seme is more frequently expressed through explicit lexical markers, while in Uzbek and Spanish, it is often expressed implicitly. It has been established that diminutive forms formed through affixation play a significant role in both Uzbek and Spanish. The statistical data presented in the article reveal the language-specific and shared features of the functional-semantic field of diminutiveness in the languages under comparison. The findings of the study are of both theoretical and practical relevance for semantic analysis, comparative linguistics, and lexicography.

KEY WORDS

Diminutives, componential analysis, semantic component, functional-semantic field, explicit meaning, implicit meaning, comparative linguistics, lexicographic analysis.

КОМПОНЕНТНЫЙ АНАЛИЗ УМЕНЬШИТЕЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ, ИСПАНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Маматкулова Нодира Файзулла кизи

Независимый соискатель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: nodiramamatkulova43@gmail.com

ORCID ID:0009-0001-3797-8665

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В статье в сопоставительном аспекте исследуются семантические компоненты значения уменьшительности (диминутивности) в английском, испанском и узбекском языках на основе метода компонентного анализа. Основной целью исследования является выявление способов репрезентации семы уменьшительности в семантической структуре лексических единиц, а также анализ её эксплицитных и имплицитных проявлений на материале трёх языков. В качестве основного материала исследования использованы толковые словари и электронные лексикографические источники. В рамках компонентного анализа были выделены архисема, интегральные семы и дифференциальные признаки (семантические показатели), что позволило установить как открытые формы выражения семы уменьшительности (small, little, reqeёb, kichik и др.), так и случаи её скрытой репрезентации, реализуемой посредством многоступенчатой дефиниционной цепочки. Результаты анализа показали, что в английском языке сема уменьшительности преимущественно выражается через эксплицитные лексические маркеры, тогда как в узбекском и испанском языках она чаще реализуется имплицитным способом. Установлено также, что в узбекском и испанском языках значительную роль играют формы уменьшительности, образованные посредством аффиксации. Приведённые в статье статистические данные выявляют как специфические, так и общие особенности функционально-семантического поля уменьшительности в сопоставляемых языках. Полученные результаты имеют теоретическую и практическую значимость для семантического анализа, сопоставительного языкознания и лексикографии.</p>	<p>Уменьшительность, компонентный анализ, семантический компонент, функционально-семантическое поле, эксплицитное значение, имплицитное значение, сопоставительное языкознание, лексикографический анализ.</p>

KIRISH

Bugungi qiyosiy tilshunoslikda kichraytirish kategoriyasi nafaqat morfologik hodisa, balki semantik va pragmatik qatlamlarni birlashtiruvchi murakkab funksional-semantik birlik sifatida talqin qilinmoqda. Shunga qaramay, uch til (ingliz-ispans-o'zbek) materialida kichraytirish ma'nosining lug'aviy izohlar asosida komponent tahlil yordamida tizimli qiyosiy tavsifi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, lug'atlarda diminutiv ma'noning ba'zan eksplisit, ba'zan esa ko'p pog'onali zanjir orqali implisit tarzda namoyon bo'lishi masalasi amaliy tahlilni talab qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqotning dolzarbligi kichraytirish funksional-semantik maydonini lug'aviy manbalar kesimida izchil modellashtirish hamda uch tilda kichraytirish semasining ifoda mexanizmlarini aniqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, kichraytirish semasi uch til materialida komponent tahlil asosida arxisema, integral sema va ko'rsatkich birliklar (pometalar) kesimida ajratilib, eksplisit va implisit ifodalanish yo'llari statistik ko'rsatkichlar bilan qiyosiy yoritiladi. Tadqiqotda ingliz, ispan va o'zbek tillariga oid lug'aviy materiallar asosida olib borilgan tahlil natijalari empirik jihatdan asoslangan holda umumlashtiriladi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, ispan va o'zbek tillarida kichraytirish ma'nosining semantik komponentlarini komponent tahlil metodi orqali aniqlash hamda ularning funksional-semantik maydon doirasida qiyosiy tavsifini berishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: komponent tahlil metodining lug'aviy izohlar asosida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash; qiyoslanayotgan tillarda kichraytirish semasini ifodalovchi arxisema, integral sema va ko'rsatkich birliklarni ajratish; kichraytirish semasining eksplisit va implisit ifodalanish holatlarini qiyosiy tahlil qilish; olingan natijalar asosida kichraytirish funksional-semantik maydonining umumiy va tilga xos xususiyatlarini aniqlash.

ADABIYOTLAR SHARHI

Semantika doirasida komponent tahlilning nazariy asoslari E. Nida ishlari bilan tizimlashtirilgan bo'lib, keyingi tadqiqotlarda leksik semantika va ma'no strukturasi masalalari keng rivojlandi (Nida, 1975, 64-67; Cruse, 2011, 45-48). O'zbek tilshunosligida esa komponent tahlil usulining nazariy tushuntirishlari va amaliy qo'llanishi tilshunoslikka kirish hamda zamonaviy yo'nalishlarga bag'ishlangan qo'llanmalarda yoritiladi (Irisqulov M, 2009, 210-211; Xolmonova, 2019, 102-113). Ispan tilida diminutivlik morfologik va grammatik manbalarda baholovchi sufikslar tizimi sifatida izohlanadi (RAE, n.d.-a; RAE, n.d.-b). Mazkur tadqiqot ushbu

yondashuvlarni uch tilli material asosida lugʻaviy definitsiyalar doirasida qiyoslaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidan Oxford Advanced Learner's Dictionary, Longman Dictionary of Contemporary English hamda Cambridge Dictionary, ispan tilidan RAE resurslari (DLE va Grammatical Glossary), o'zbek tilidan esa "O'zbek tilining izohli lug'ati" (5 jild) kabi manbalardan olingan. Har bir birlik bo'yicha definitsiya ichidan (i) arxisema (umumiy sema), (ii) integral sema (guruh ichidagi umumiylik) va (iii) differensial semalar ajratildi. Eksplisit diminutiv markerlar (small/little/young; pequeño; kichik va b.) bevosita qayd etildi, implisit holatlar esa multi-step definitсион zanjir orqali (masalan, bacteria → microbe → extremely small...) aniqlashtirildi.

NATIJARLAR

Tilni leksik-semantik darajada tahlil qilish metodlaridan biri sifatida qaraluvchi komponent tahlil metodining maqsadi ma'no hajmi (semantik doirasi), barcha holatlarda semantik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir, ya'ni ushbu metodning obyektini faqat so'z emas, balki ma'lum bir leksik-semantik guruhdir. Komponent tahlilda so'zlarni ma'lum guruhlarga ajratishda semantik xususiyatlari hisobga olingan holda, ma'no farqlash orqali leksik-semantik guruh hosil qilinadi. Leksik sathda ma'lum guruhlarga bo'lingan so'zlar o'zaro paradigmatic munosabatda bo'ladi. Komponent tahlilning ilk bosqichida til lug'at boyligidan leksik-semantik guruhni ajratish muhimdir. Ushbu metod so'zning lug'aviy ma'nosidagi semalarni tahlil qiladi. Semalar so'z ma'nosini farqlash xususiyatiga egadir. M. T. Irisqulov, D.U. Ashurova, Z. T. Xolmonova kabi olimlar ushbu metod haqida o'z fikrlarini berar ekan, M. T. Irisqulov mazkur metodning ikki xil turi: so'zning lug'aviy ma'nosini tahlil qilish va ko'p pog'onali definitсион tahlil turlari haqida ma'lumot keltiradi. Birinchi tahlil natijasiga ko'ra so'zning lug'aviy ma'nosi eksplisit, ya'ni yaqqol va oshkora bayonga ega bo'lsa, ikkinchi turida so'zning asosiy ma'nosi uning lug'aviy ma'nosida implisit, ya'ni yashirin holda ifodalanadi. Shu sababli ma'no farqlovchi (tahlil qilinayotgan sema) tahlilning 4 - 5- pog'onalarida ochib beriladi. Tadqiqotimizda qiyoslanayotgan tillardagi so'zlarning semantik izohidagi kichraytirish ma'nosini ko'rsatuvchi arxisemalar, integral semalar va pometalarni (ko'rsatkich so'zlar) aniqlashtirish talab qilinadi. Arxisema – so'zning guruhlanishida uzviylik hosil qiluvchi vosita hisoblanib, ba'zan "umumiy sema" termini orqali ham ifodalandi. Integral semalar farqlovchi semalarga bo'linib, til birliklari semantikasiga chuqurroq kirib borib, ularning alohida ma'nolarini izlab topishga qaratilgan bo'ladi.

Kichraytirish semantik komponentini aniqlash uchun o'zbek tilidagi bir qancha izohli, faol so'zlar va sinonimlar lug'atlari, ingliz tilidagi izohli, va terminlar lug'atlaridan, ispan tilidagi lug'atlar va bir qancha internet manbalari o'rganib chiqildi.

O'rganishlarimiz natijasida ingliz tilidan quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

- ramekin (ramekin, idish turi) - a small dish used for baking and serving food for one person;
- birdie (qushcha)- 1) spoken a little bird. This word is used mainly by children or when speaking to children; 2) in golf, a score that is one stroke (=a hit of the ball) less than par (=the expected number of strokes needed for a hole) —compare bogey 1 i, eagle; 3) Am E a light object that players hit over the net with a racket in the game of badminton;
- gold-fish (tillo rangli baliq) - a small orange fish, often kept as a pet;
- kitten (mushuk bolasi) - a very young cat;

Ushbu misollardagi ramekin, birdie, gold-fish, kitten va shu kabi boshqa so'zlarning lug'aviy izohidagi small, little va young semalari eksplisit ifodalash yo'li orqali aniqlandi.

Keyingi misolda esa semaning implisit tarzda ifodalanishini ko'rishimiz mumkin:

anaerobia (anaerobiya) – bacteria able to live without air;

Ushbu izohda kichraytirishga doir birorta sema mavjud emas, ammo lug'aviy ma'no tarkibiga kiruvchi "bacteria" so'zining lug'aviy ma'nosida "microbe" semasi, microbe so'zining izohida esa "minute" ya'ni very small integral semasi mavjud:

bacteria (bakteriya) – microbe, disease-germ;

microbe (mikrob) – minute plant or animal;

minute (juda kichik) – very small;

Demak, anaerobia so'zining komponent tahlilida ko'rsatkich sema to'rtinchi pog'onada aniqlandi:

Ingliz tilida "little" va "small" semalari KFSMga kiruvchi leksik birliklarning lug'aviy semantik izohlarida arxisema deb qabul qilinsa, "tiny", "minute", "short", "narrow", "young", "mini" integral semalar, "diminutive", pometa – ko'rsatkich so'z deb qabul qilindi. Semantik strukturasi ushbu integral semalarga ega bo'lgan so'zlar o'z navbatida "little" yoki "small" arxisemasi bo'yicha bir guruhga birlashadilar. Masalan:

tiny - very small or diminutive: minute;

minute - extremely small, as in size, amount, extent, or degree;

mini - something small of its kind: such as

a: minicar

b: miniskirt

c: minicomputer

diminutive – small; little; tiny;

short – 1) small in length, distance, or height; 2) something that is short measures only a small amount from one end to the other.

narrow - of small width in relation to length.

young - small/little (a small child is very young)

Ingliz tilidagi lugʻatlar yordamida toʻplangan misollar soni 1000 tani tashkil etdi. Ularning 660 tasi (66%) implitsit, 220 tasi (22%) eksplitsit ifodalash yoʻli shu bilan bir qatorda 120 (12%) pomentalar yordamida aniqlandi.

Komponent tahlil natijasida aniqlangan arxisemalar, integral semalar va pomentalar faollik darajasi quyidagicha:

small – 810 ta (81%), little - 52ta (5,2%), diminutive – 41 ta (4,1%), mini – 35 ta (3,5%), young - 32 ta (3,2%), tiny -12 ta (1,2%), minute - 8 ta (0,8%), short – 6 ta (0,6%), narrow- 4 ta (0,4%).

Ispan tilida komponent tahlil natijasida oʻrganilgan lugʻatlar va internet manbalari asosida kichraytirish maʼnosini ifoda etuvchi leksik birliklar 400 tani tashkil etdi. “pequeño, pequeña” soʻzlari arxisema sifatida olingan boʻlsa, “joven”, “pequeñito” soʻzlari integral semalari va “diminutivo” koʻrsatish soʻzi pometa sifatida tanlab olindi. Misol tariqasida quyidagi soʻzlarni keltiramiz:

Piecito – diminutivo de pie (oyoq)

Piececito – diminutivo de pie (oyoq)

Piecico – diminutivo de pie (oyoq)

Ushbu misolda keltirilgan soʻzlar bitta soʻzning kichraytirilgan shakli boʻlib, ispan tili uchun kichraytirish shakllarini yasashda asosan qoʻshimchalar oʻrni kattaligi yaqqol sezilib turadi.

Jacal – casa pequeña;

Platillo – objeto o pieza pequeña en forma de plato;

nene, -na - niño pequeño;

Keyingi misolimizda kichraytirish shakli implitsit tarzda kelganini koʻrishimiz mumkin:

“Colina (tepalik) - Elevación natural de la superficie terrestre, que se destaca de su entorno, usualmente de poca extensión y con contornos bien definidos, más bien redonda que con picos, sin una definición precisa de su altura”;

“Poca (kichik, biroz) - Escasa, pequeña”

Yaʼni, “colina” (tepalik) soʻzi izohi tarkibidagi “usualmente de poca extensión y con contornos bien definidos” iborasida “odatda kichik darajadagi va aniq belgilangan konturlar bilan” qismidan “poco” soʻzi tepalikning togʻdan kichikroq

bo‘lishiga ishora berishini kuzatamiz. So‘zdagi kichraytirish ma’nosini ikkinchi pog‘onada topamiz.

Colina → poco → pequeña

Ispan tilida inson ismlari bilan keluvchi kichraytiruv shakllari ham alohida e’tiborga molikdir. Xususan:

Marcelo ← Marcos;

Paulino ← Paulo;

Chepa ← Josefa;

Fanny ← Francisca;

Tahlil davomida yig‘ilgan misollarning 76 tasi (19%) pometalari, 99 tasi (24,75%) ekspitsit tarzda va 225 tasi (56,25%) implitsit ifodalash yo‘li orqali topildi. Aniqlangan arxisema, integral sema va pometalari faollik darajasi quyidagicha: diminutive – 76 ta (19%), pequeño, pequeña – 99 ta (24,75%), joven – 38 ta (9,5%), pequeño – 21 ta (5,25%), menudo – 7 ta (1,75%), chico – 24 ta (6%), kichraytirish shaklini hosil qiluvchi ba’zi qo‘shimchalar bilan (-ito, -ita, -illo) – 76 ta (19%);

O‘zbek tilida olib borilgan komponent tahlil natijasiga ko‘ra, lug‘atlardan yig‘ilgan kichraytirish ma’nosini ifoda etuvchi leksik birliklar 550 tani tashkil qildi. Unda “kichik” arxisemasi hamda “mayda”, “mitti”, “jajji” “yosh”, “past-quyi” kabi semalar integral sema va shu bilan bir qatorda otlarga qo‘shilib, kichraytirish va erkalash ma’nosini hosil qiluvchi “-cha” qo‘shimchali so‘zlar mavjud semalar va lug‘atlar izoh tarkibidagi “kichraytirish” pometalari ham KFSMga kiritildi. Mazkur integral sema va pometalari “kichik” asosdagi so‘zlardan tashkil topgan arxisemada birlashdi. Misol tariqasida:

- kulba – kichik ko‘rimsiz, bechorahol uy; boshpana;
 - masal – kishilarga o‘git bo‘ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya;
 - sapcha – pishib yetilmagan kichkina qovun; xamak;
 - tomchi – suyuqlikning alohida kichik bo‘lagi;
 - qalqoncha – qalqon so‘zining kichraytirilgan shakli;
- Bir necha misollarning komponent tahlilini kengaytirilgan holda havola etamiz:
- Mashinka (“mashina” so‘zining kichraytirilgan shakli) – har biriga harf yozilgan, tugmachalarini barmoq bilan urib xat yozadigan moslama;
 - Maqola (adabiy nutq, kichik asar) - to‘plam, jurnal yoki gazetada nashr qilinadigan, hajmi uncha katta bo‘lmagan ilmiy yoki publisistik asar;
 - Dekcha (forscha “qozoncha”) – kichkina qozon, qozoncha;
 - Disketa (Inglizcha “diskette”- “kichkina disk”) – texnologiya, kompyuterning tashqi ma’lumotlari saqlanadigan kasseta;
 - Ruchka (ruscha, ruchka – qo‘lcha; dasta, dastak, tirgak) – yozuv quroli;

Shu kabi misollarda berilgan soʻzlarning kelib chiqishi yoki soʻz tarkibida kichraytirish shaklini koʻrishimizga qaramay, lugʻaviy maʼnosida kichraytirish shaklini baʼzi hollarda uchratmasligimiz mumkin. Keyingi misolimizda kichraytirish shakli implitsit tarzda ifodalanib kelganining guvohi boʻlamiz:

- Daqiqa – (arabcha, minut; zarra; noziklik) 1) Soatning oltmishdan bir boʻlagiga teng vaqt; minut. 2) (koʻchma) Umuman, vaqtning juda qisqa boʻlagi; on, lahza; Soʻzda kelayotgan qisqa soʻzining izohida esa davomiyligi kichik, uzun emas degan taʼrifni koʻrishimiz mumkin. Demak, “daqiqa” soʻzidagi kichraytirish maʼnosi ikkinchi pogʻonadan aniqlanyapti.

Tahlil davomida yigʻilgan misollarning 58 tasi (10,5%) pometalar, 150 tasi (27,3%) ekspitsit tarzda va 342 tasi (62,2%) implitsit ifodalash yoʻli orqali topildi. Aniqlangan arxisema, integral sema va pometalar faollik darajasi quyidagicha: kichraytirish – 58 ta (10,5%), kichik– 246 ta (44,7%), mayda – 22 ta (4%), mitti – 13 ta (2,4%), jajji – 5 ta (0,9%), yosh – 14 ta (2,6%), past,quyi – 16 ta (2,9%), “-cha” qoʻshimchasi bilan – 176 ta (32%);

Ingliz, oʻzbek va ispan tillarida kichraytirishni aniqlashga qaratilgan komponent tahlil metodi yordamida soʻzlarning semantik strukturasi kichraytirish semasini aniqlashga doir izlanishlarimiz yetarlicha samara berdi. Shunday qilib qiyoslanayotgan tillarda kichraytirish funksional semantik maydoni (KFSM) doirasidagi komponent tahlil natijalaridan quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

- Oʻrganilgan manbalar yordamida KFSMga doir ingliz tilidan 1000 ta soʻz, ispan tilidan 400 ta va oʻzbek tilidan 550 ta soʻzlar oʻrganib chiqildi;
- Ingliz tilida komponent tahlil natijasida aniqlangan jami soʻzlardan 66% implitsit, 22% eksplitsit ifodalash yoʻli va 12% pometalar yordamida aniqlandi;
- Ispan tilida aniqlangan soʻzlardan 56,25% implitsit, 24,75% ekspitsit ifodalash yoʻli orqali va 19% pometalar orqali topildi;
- Oʻzbek tilida bu koʻrsatkichlar quyidagicha: 10,5% pometalar, 27,3% ekspitsit tarzda va 62,2% implitsit ifodalash yoʻli orqali;
- Qiyoslanayotgan tillarda mavjud lugʻatlardagi materiallar KFSMning chuqur lingvistik tahlil qilinishi uchun yetarli emasligini, ushbu tillardagi boshqa manbalar: badiiy asarlar, gazeta jurnallar, radio televideniya, internetdan toʻplangan materiallar va soʻrovnomalar natijasi va boshqa qoʻshimcha manbalarga tayanish mavzuni yanada kengroq yoritib beradi.

MUNOZARA

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, ingliz tilidagi definityalarda diminutivlik koʻpincha sifatdosh birliklar (small, little, young) orqali bevosita kodlanadi (Oxford Learner’s Dictionaries, n.d.; Longman Dictionary of Contemporary English, n.d.).

O‘zbek tili kabi sintetik xususiyat kuchliroq bo‘lgan tilda esa affiksatsiya bilan bir qatorda definitivlarda "kichik", "mayda" kabi leksik markerlar ham faol ishlaydi; o‘zbek izohli lug‘atlarida diminutiv sema ko‘pincha normativ izoh va sinonimik ko‘rsatkichlar orqali mustahkamlanadi (O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006). Ispan tilida diminutivlikning grammatik talqini baholovchi sufikslar tizimi (sufijos apreciativos) kontekstida beriladi, bu esa semantik-pragmatik yukni (erkalash, yumshatish, kinoya) ham nazarda tutadi (RAE, n.d.-a; RAE, n.d.-b).

XULOSA

Mazkur tadqiqotda komponent tahlil metodi asosida ingliz, ispan va o‘zbek tillarida kichraytirish (diminutivlik) ma’nosining semantik tuzilishi qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Tahlil natijalari kichraytirish semasining uch tilda turli vositalar orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Ingliz tilida diminutivlik ko‘proq eksplisit leksik markerlar orqali namoyon bo‘lsa, o‘zbek va ispan tillarida implisit ifodalanish ustunlik qiladi. Arxisema, integral sema va differensial komponentlarning aniqlanishi kichraytirish funksional-semantik maydonining umumiy va tilga xos jihatlarini yoritishga xizmat qildi. Olingan natijalar qiyosiy semantika va leksikografik tadqiqotlar uchun muhim nazariy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Cambridge Dictionary.** Ramekin [Elektron manba]. – URL: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/ramekin> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
2. **Cruse D. A.** Lexical semantics. – 2-nashr. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
3. **Irisqulov M. T.** Tilshunoslikka kirish. – 2-nashr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
4. **Longman Dictionary of Contemporary English.** Birdie [Elektron manba]. – URL: <https://www.ldoceonline.com/dictionary/birdie> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
5. **Merriam-Webster.** Birdie [Elektron manba]. – URL: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/birdie> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
6. **Merriam-Webster.** Microbe [Elektron manba]. – URL: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/microbe> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
7. **Nida E. A.** Ma’no komponent tahlili: semantik tuzilmaga kirish. – Gaaga: Mouton, 1975.
8. **O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildda. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

9. **Oxford Learner's Dictionaries.** Microbe [Elektron manba]. – URL: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/microbe> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
10. **Oxford Learner's Dictionaries.** Ramekin [Elektron manba]. – URL: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/ramekin> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
11. **Real Academia Española.** Diminutivo, -va // Diccionario de la lengua española (DLE) [Elektron manba]. – URL: <https://dle.rae.es/diminutivo> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
12. **Real Academia Española.** Diminutivo // Glosario de términos gramaticales [Elektron manba]. – URL: <https://www.rae.es/gtg/diminutivo> (murojaat sanasi: 30.01.2026).
13. **Rierner N.** Semantikaga kirish. – Kembrij: Cambridge University Press, 2010.
14. **Xolmonova Z. T.** Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2019.

REFERENCE:

1. Cambridge Dictionary. (n.d.). *Ramekin*. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/ramekin>
2. Cruse, D. A. (2011). *Lexical semantics* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Irisqulov, M. T. (2009). *Introduction to linguistics* (2nd ed.). Yangi asr avlodi.
4. Longman Dictionary of Contemporary English. (n.d.). *Birdie*. <https://www.ldoceonline.com/dictionary/birdie>
5. Merriam-Webster. (n.d.). *Birdie*. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/birdie>
6. Merriam-Webster. (n.d.). *Microbe*. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/microbe>
7. National Encyclopedia of Uzbekistan. (2006). *Explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vols. 1–5). National Encyclopedia of Uzbekistan.
8. Nida, E. A. (1975). *Componential analysis of meaning: An introduction to semantic structures*. Mouton.
9. Oxford Learner's Dictionaries. (n.d.). *Microbe*. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/microbe>
10. Oxford Learner's Dictionaries. (n.d.). *Ramekin*. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/ramekin>
11. Real Academia Española. (n.d.-a). *Diminutive, -va. Dictionary of the Spanish Language*. <https://dle.rae.es/diminutivo>
12. Real Academia Española. (n.d.-b). *Diminutive. Glossary of grammatical terms*. <https://www.rae.es/gtg/diminutivo>
13. Rierner, N. (2010). *Introducing semantics*. Cambridge University Press.
14. Xolmonova, Z. T. (2019). *Computational linguistics*. Fan va texnologiya
- 15.